




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyul)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2022- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3002,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 97,5 mln. AQSh dollariga yoki 3,1 %ga kamaydi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 3002,6 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 96,9 %) va import hajmi 1816,6 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 93,3 %) yetdi. Hisobot davrida 630,5 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-iyulga nisbatan, %da)

### 2022- yil yanvar

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	692,8	253,3	439,5	23,1
Xitoy	595,3	233,0	362,3	19,8
Qozog'iston	512,1	72,0	440,0	17,1
Turkiya	474,8	382,8	92,0	15,8
Braziliya	141,7	0,0	141,7	4,7
Tojikiston	56,7	36,7	20,0	1,9
Afg'oniston	38,6	38,3	0,3	1,3
Qirg'iz Respublikasi	38,3	23,8	14,5	1,3
Italiya	35,0	12,7	22,3	1,2
Germaniya	34,7	4,1	30,6	1,2
Belorussiya	31,4	15,3	16,1	1,0
Ukraina	30,0	13,1	16,9	1,0
Koreya Respublikasi	26,5	5,1	21,4	0,9
Polsha	21,4	6,9	14,5	0,7
Niderlandiya	19,7	14,2	5,5	0,7
Ozarbayjon	18,5	4,8	13,7	0,6
Daniya	17,4	0,0	17,4	0,6
Eron (Islom Respublikasi)	16,6	3,0	13,6	0,6
Hindiston	14,8	2,2	12,6	0,5
Litva	14,7	0,8	13,9	0,5




## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,5 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 93,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-iyul oylarida 53,5 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 51,6 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etdi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-iyul, % hisobida)






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Ukraina davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyul)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-iyul oyi yakuni bilan 1186,0 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 102,9 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (70,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,0 %), turli xil tayyor buyumlar (9,4 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,6 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,9 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	<b>1186,0</b>	<b>429,5</b>	<b>756,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	106,5	54,8	51,7	9,0	12,8	6,8
Ichimliklar va tamaki	2,1	2,1	0,1	0,2	0,5	-
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	43,0	23,9	19,1	3,6	5,6	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	2,5	0,5	2,0	0,2	0,1	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,4	0,2	1,2	0,1	-	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	44,6	33,1	11,5	3,8	7,7	1,5
Sanoat tovarlari	836,3	182,0	654,2	70,5	42,4	86,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	34,0	24,1	9,9	2,9	5,6	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	111,9	107,5	4,4	9,4	25,0	0,6
Xizmatlar	3,7	1,3	2,4	0,3	0,3	0,3





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-iyul)

2022- yilning yanvar-iyul oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.



Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>102,9</b>	<b>112,9</b>	<b>98,0</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	84,0	72,3	101,5
Ichimliklar va tamaki	143,5	144,9	114,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	86,6	79,6	97,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	15,5 m.	7,8 m.	21,0 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	149,7	3,9 m.	136,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	109,7	120,3	87,7
Sanoat tovarlari	101,9	121,4	97,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	181,2	2,2 m.	122,2
Turli xil tayyor buyumlar	128,2	127,6	145,0
Xizmatlar	66,3	162,3	50,1





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1039,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,7 %ini tashkil qiladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 63,8 mln. dollar qiymatga ega 101,4 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 28,4 %ga kamaygan, naturada – 71,6 %ga o'zgarish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 31,1 mln. AQSh dollariga teng 56,4 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 43,0 %ga kamaygan), shuningdek, 18,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 11,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 30,9 %ga kamaygan).

### 2022- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
11,6 ming tonna  
18,4 mln.  
AQSH dollari



Uzum  
4,9 ming tonna  
5,7 mln. AQSH  
dollari



Yeryong'oqlar  
2,1 ming tonna  
2,9 mln. AQSH  
dollari



Sabzavotlar  
56,4 ming tonna  
31,1 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-iyul oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 49,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 4,2 %ini tashkil qiladi.




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyul)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyul oyi mobaynida import hajmi 1816,6 mln. AQSh dollari (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 93,3 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush sanoat tovarlari (20,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,4 %) mashinalar va transport asbob-uskunalar (18,9 %), noziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (19,6 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyul)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umiy hajmga batan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1816,6</b>	<b>967,5</b>	<b>849,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	388,4	173,8	214,7	21,3	17,9	25,3
Ichimliklar va tamaki	2,7	2,6	0,1	0,1	0,3	-
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	355,2	334,7	20,5	19,5	34,6	2,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	57,6	56,3	1,2	3,2	5,8	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	35,5	33,4	2,1	2,0	3,5	0,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	191,7	53,5	138,2	10,6	5,5	16,3
Sanoat tovarlari	366,5	262,0	104,5	20,2	27,1	12,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	343,9	37,4	306,5	18,9	3,9	36,1
Turli xil tayyor buyumlar	68,1	10,8	57,3	3,8	1,1	6,8
Boshqa tovarlar	1,9	1,9	-	0,1	0,2	-
Xizmatlar	5,1	1,1	4,0	0,3	0,1	0,5

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (19,5 %), sanoat tovarlari (20,2 %), MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (18,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,3 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-iyul, % hisobida )


Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>93,3</b>	<b>86,3</b>	<b>102,7</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	143,7	141,8	145,3
Ichimliklar va tamaki	48,9	50,3	20,7
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	80,8	79,1	122,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	87,0	86,4	130,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	72,2	75,3	43,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	131,4	117,4	137,7
Sanoat tovarlari	108,4	110,5	103,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	65,9	24,0	83,6
Turli xil tayyor buyumlar	82,2	67,6	85,7
Boshqa tovarlar	20,6	49,8	0,1
Xizmatlar	27,8	42,5	25,3





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Italiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1528,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,1 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (71) 202-86-59